



MILLIY HUNARMANCHILIKNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Muhamadiyeva N.Q.

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: milliy, hunarmanchilik, takomillashtirish, muammo, xususiyat, vazifa, texnologiya, echim, tarbiya, qiziqish, kashtachilik, komponent.

Ключевые слова: народный, промысел, совершенствование, проблема, особенность, задача, технология, решение, воспитание, интерес, вышивка, составляющая.

Key words: national, craft, improvement, problem, feature, task, technology, solution, upbringing, interest, embroidery, component.

Kirish. Milliy hunarmandchilikni o'quvchilarga o'qitishda ma'naviy, madaniy qadriyatlardan foydalanib har qanday o'quv-tarbiyaviy jarayonlar psixologik, pedagogik, didaktik maqsadlarga asoslangan holda olib borilishi lozim. Ta'lim-tarbiyaviy tadbirlar o'quvchilarning kelgusi hayotiga, samarali mehnat faoliyatiga va turli kasb-hunarlarning asoslarini egallab borishlariga ahamiyati va imkoniyati benihoya katta bo'ladi.

Ushbu maqolaning mazmun mohiyatini anglash uchun milliy hunarmanchilikning variativ komponentlarini takomillashtirish ishlarini bajarishni tashkil etish uchun eng avvalo, variativ komponent va takomillashtirish so'zlariga aniqlik kiritib olish zarur.

Komponentlar (termodinamika va kimyoda), mustaqil komponentlar – termodinamik sistemani tashkil etadigan, kimyoviy jihatdan individual hisoblanadigan moddalar. K deganda sistemani tashkil etadigan moddalarning umumiy soni emas, balki uning har qanday fazasining tarkibini ifodalash uchun etarli bo'lgan moddalar soni tushuniladi. K Soni sistemani tashkil etuvchi moddalar soniga teng. K soniga qarab 1 komponentli, 2 komponentli, 3 komponentli va ko'p komponentli sistemalar bo'ladi. K. Tushunchasini fanga 1875—1876 yillarda Amerikalik fizik J.I.Gibbs kiritgan. Bundan ko'rinib turibdiki komponent deganda buyumni tashkil etuvchi qismlar tushuniladi. Komponent lotincha

componens, componentis- tashkil etuvchi; tarkibiy qism. Biror narsaning tarkibiy qismi tushuniladi.

Ruscha-o‘zbekcha lug‘at.O‘zbek Ensiklopediyasi Bosh tahririyati.1-jild. Toshkent-1983. 808 b. kitobining 99-sahifasida variasiya, variativ so‘zlari shunday izohlangan. Variativ-juz‘iy o‘zgarish: shunday o‘zgarish natijasida yuzaga kelgan yangi ko‘rinish. Masalan, do‘ppi asosiy tushuncha bo‘lib, Andijon do‘ppisi, Farg‘ona do‘ppisi, Namangan do‘ppisi, Boysun do‘ppisi, Buxoro do‘ppisi, qoraqalpog‘ do‘ppisi, qozoq do‘ppisi va h.k. bir-biridan tikilishi, choki, rangi, shakli, gullari bilan farq qiladi. Shuningdek, bunday holatni kashtachilikda, naqqoshlikda, kullolchilikda va boshqa sohalarida ko‘rish mumkin [13].

Hunarmandchilik so‘zining mazmunini anlaydigan bo‘lsak aslida hunarmandchilik bu-milliy an‘anaviy mayda tovar ishlab chiqarish, oddiy mehnat qurollari yordamida yakka tartibda va qo‘l mehnatiga asoslangan sanoat turidir, shu bilan bir qatorda shunday mahsulotlar tayyorlanadigan kasblarning umumiy nomidir. Hozirgi kundagi yirik sanoat ishlab chiqarish vujudga kelishiga qadar keng tarqalgan va ayrim sohaları asta-sekin shakllangan. Hunarmandchilik insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelgan va jamiyat rivojlanishi davomida sekinlik bilan dehqonchilik va chorvachilik ajralib chiqdi, turli ijtimoiy-tarixiy yillar doirasida texnika rivoji bilan aloqadar holda takomillashib bordi.

Milliy hunarmandchilikning variativ komponentlarini takomillashtirish deganda, bu miliy hunarmandchilikning kashtachilik yonalishida misol tariqasida tushunadigan bo‘lsak Boysun milliy kashtasini tikishda mahsulotning turi va vazifasiga qarab kashtaning iplari va naqshlari tanlanadi va tikiladi. Tikilgan kashtachilik buyumini takomillashtirilib, qo‘shimcha ishlov berib, buyumga yangilik kiritishdir.

Milliy hunarmandchilik insonning aqliy faoliyati yordamida qo‘lda yaratilgan ijod mahsulidir. Bu ijod mahsulini ya‘ni yaratilgan mahsulotni yana aqliy faoliyatimiz asosida takomillashtirsak, modernizatsiyalashtirsak mahsulotimiz sifati oshadi, turi kengayadi va import mahsulot qatoriga qo‘shiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, hunarmandchilik mahsulotlari qanchalik takomillashtirilib borilsa, kamchiliklari shunchalik bartaraf etilib boriladi va sifat o‘zgarishi o‘sib boradi [25].

Demak, variativ komponentlik bu hunarmandchilik mahsulotining biror detaliga o‘zgartirish kiritishdir. Integrativ takomillashtirish esa buyumning detallarini uzviy bog‘lab, yanada sifatini, faolligini oshirishdir.

Variativ so‘zi juziy degan ma‘noni anglatadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, ushbu ilmiy tadqiqot ishida variativ so‘zi juziy o‘zgarish, shunday o‘zgarish natijasida yuzaga kelgan yangi ko‘rinishning hosil bo‘lishidir.



Integrativ, integratsiya (lot. integratio - tiklash, to'ldirish, integer - butun so'zidan) olinib 1. sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o'zaro bog'liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha; 2 fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni; differensiatsiya bilan birga kechadi; 3. Ikki va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o'zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish kabi tushuniladi.

Texnologiya ta'limida milliy hunarmandchilikning variativ komponentlarini integrativ takomillashtirish deganda o'quvchilarga milliy hunarmandchilik mahsulotlarining ayrim qismlarini o'zaro bo'g'lab, biror qismiga o'zgartirish, yangilik kiritish hisoblanadi. O'quvchilar bu yangilik kiritishni texnologiya darslarida o'rganishi uchun ularga nazariy va amaliy bilimlar berish usullari o'rgatiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'rta Osiyo xalqlari XIII asrga qadar kashta tikish uchun faqat «bo'z» matosidan foydalanishgan. Shu davrga kelib, matoga gul berishda ham o'zgarishlar bo'lganligini A.A. Hakimovning «Изобразительно-орнаментальные образы и мотивы прикладного искусства» maqolasida IX-XIII asrlar ornamentlarini ikki davrga bo'lib ko'rsatgan.

Arablar bosqini, arab halifaligi o'z ta'sirini o'tkazgani tufayli ipak mato ishlab chiqarish yanada rivojlandi. Bu davrda «olacha», «zandanachi» kabi matolar O'zbekistonning Termiz, Qarshi, Samarqand, Buxoro, Marg'ilon kabi bir nechta hududlarida ishlab chiqarilgan bo'lsa, aynan shu matolar Xitoyda ham ishlab chiqarilgan edi. Bu haqda Mahmud Qoshg'ariy o'zining «Devoni lug'otit turk» asarida, Ahmad Yugnakiy «Xibbatul haqqoyiq» asarida ko'rsatib o'tadi. S.M. Mahkamova «К истории ткачества в Средней Азии» maqolasida ko'rsatishicha, Xitoyda ishlab chiqarilgan matolardagi ornamentlar O'rta Osiyoda ishlab chiqarilgan mato ornamentlariga o'xshaydi, lekin ularning rangida farq bo'lgan.

Movarounnahrda va so'ngra boburiylar zamonida Hindistonda allomalar, davlat amaldorlari, ulamolar «paranji» rusumidagi libos kiyib yuradigan bo'ldi. Shayboniylar davriga kelib, bu liboslar ilm ahli, olimlar kiyadigan kiyim vazifasini bajargan. Keyinchalik mazkur kiyim ayollarning kundalik tashqariga chiqqanda kiyadigan kiyimi vazifasini o'tagan. Aynan shu davrda erkaklarning turli xildagi to'nlari vujudga keldi. XIX-XX asrlarda an'anaviy liboslar taraqqiy etgan holda kashtado'zlik ham rivojlandi. Farg'onada Qo'qon xonligida birmuncha markazlashgan hokimiyatning vujudga kelishi vodiyning iqtisodiy rivojiga ta'sir qildi.

An'anaviy kiyimlardan biri belbog' hisoblanib, XIX - XX asrlarda belbog' shaklida ham o'zgarishlar bo'ldi. XIX asrning boshlarida belbog' 2-3 m li

uzun, kengligi 40 sm bo‘lgan tasmaimon bo‘lib, matoning ikki yon tomoniga o‘simliksimon gullar «yo‘rma» yoki «bosma» chok bilan tikib chiqilgan. XX asrga kelib, belbog‘ shakli o‘zgardi. Uning shakli to‘rtburchak bo‘lib, o‘lchami yoshiga qarab belgilangan. Belbog‘ning shakli vodiy bo‘ylab bir xilda bo‘lgan. Belbog‘dagi gullar, naqshlar o‘zgardi, geometrik shakllardan, sudralib yuruvchi hayvon tasvirlaridan, kam hollarda o‘simliksimon gullardan foydalana boshlandi. O‘lchamlari: 90x90, 60x60, 50x50, 30x30 (sm²) yuzada bo‘lgan. Belbog‘ni tikishda «durya», «suv», «chamak», «yo‘rma» choklaridan foydalangan.

So‘zana, palak, zardevor, choyshab (ro‘yjo) kabi mahsulotlar tikish, chetga eksport qilish kengaydi. XX asrning 30-yillarida olib borilgan siyosat Farg‘ona vodiysi kashtachiligiga o‘z ta‘sirini o‘tkazdi. Natijada, qo‘lda kashta tikish o‘rniga, badiiy buyumlar fabrikasida, tumanlarda joylashgan tikuvchilik artellarida «yo‘rma» mashinasida kashta tikiladigan bo‘ldi. Bu hol kashta sifatiga, kashta xususiyatiga o‘z salbiy ta‘sirini o‘tkazdi. Andijon, Farg‘ona, Namangan, Marg‘ilon, Qo‘qonda va boshqa shaharlarda hunarmadchilik artellari va badiiy buyumlar fabrikasi ish boshladi.

S. M. Mahkamovning «K istorii tkachestva v Sredney Azii» maqolasida O‘rta Osiyoda, jumladan, O‘zbekiston hududida ishlab chiqarilgan qadimgi matolar, ularga solingan ornamentlar haqida muhim ma‘lumotlar keltirilgan .

O‘quv-tarbiyaviy tadbirlarning ahamiyati, mohiyati va samarasi dars jarayonida o‘qitiladigan mashg‘ulotlarnikidan kam emas. Umumta‘lim maktablari o‘quvchilarining texnologiya va kasbga tayyorlashga oid nazariy bilimi, amaliy ko‘nikma va malakalari turli unumli texnologik jarayon shakllarida bevosita ishtirok etishlarida mustahkamlanib boriladi.

Professor A.Xo‘jaboev rahbarligida yaratilgan “O‘zbekiston Respublikasi umumta‘lim maktablarida texnologiya ta‘limi va kasblarga yo‘naltirish” Konsepsiyasi loyihasida bu soha bo‘yicha o‘quv-tarbiyaviy tadbirlar sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning turlari to‘g‘risida quyidagilar bayon etilgan:

Tahlil natijalar. Mehnat turlari; homiylik va otalik korxonalarini negizida tashkil etiladigan amaliy mashg‘ulotlar: maktab kooperativlari, kichik va qo‘shma korxonalarda ishlash, mehnat amaliyotida qatnashish, turli xil mulkchilik shakllaridagi ishlab chiqarish korxonalariga sayohatlar tashkil etish, mehnat bayramlari, anjumanlari, ko‘rgazmalari va shu kabilarni tashkil etish, bolalar bog‘chalari, nogironlar, keksalar va faxriylarga mehribonlik amaliy yordami ko‘rsatish, homiylik va otalik tashkilotlarining mavsumiy ishlariga yordam berish, “yashil” va “zangori” qo‘riqchilar uyushmalari ishida qatnashish, oilaviy, xususiy korxonalar va fermer xo‘jaliklari ishida ishtirok etish, oivlaviy kasb-hunar sulolalarini davom ettirish, yakka tartibdagi yollanma mehnatda ishtirok etish,



o'quvchilarning yozgi mehnat va dam olish oromgohlarini tashkil qilish va boshqalar.

Umumta'lim maktablari pedagogik jamoasi yetakchiligida o'tkaziladigan o'quv-tarbiyaviy tadbirlar, eng avvalo, tarbiyaviy va ta'limiy maqsadlarda yo'naltirilmog'i va o'quv muassasasining yillik, yarim yillik, oylik, haftalik o'quv va tashkiliy ishlar rejasiga mos tushmog'i lozim.

O'quvchilarni texnologiya va kasbga tayyorlashni takomillashtirishda keng qo'llanilib kelinayotgan va hanuzgacha o'zining ilmiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchilik ahamiyatini yo'qotmagan, pedagogik jihatdan samarali bo'lgan shakllaridan biri – bu to'garak mashg'ulotlari.

O'.Q.Tolipov, Sh.S.Sharipov va P.Q. Xolmatovlar tomonidan nashr etilgan "Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyasi" R.H.Jo'raevning umumiy tahriri ostida risolasida kasbga yo'naltirishga asoslangan darsdan tashqari mashg'ulotlarni uch turga ajratishadi: 1-to'garak mashg'ulotlari; 2-ommaviy shakldagi darsdan tashqari mashg'ulotlar; 3-o'quvchilarning mehnat birlashmalari.

Xulosalar. Maqolada xalq milliy hunarmandchiligi sohalarining kosibchilik, mahsido'zlik, ko'nchilik va pichoqchilikka oid to'garak mashg'ulotlari badiiy-amaliy to'garaklar jarayonida tashkil etiladi. Sh o'rinda xulosa qilinib, milliy xalq hunarmandchiligi ijodiy faoliyatda tuli xil mahsulotlarni inson o'z qo'llari bilan, tabiiy materiallardan yoki ularga yaqin materiallardan qo'lda ishlov berib san'at asarini yaratadi. Ushbu turdagi faoliyat uy hunarmandchiligida zarur uy-ro'zg'or buyumlari tayyorlashda xizmat qiladi. San'at singari hunarmandchilik madaniyat, din, siyosiy qarashlarga qarab rivojlanib bordi, milliy hunarmandchilikning turlari va rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar tarixiy manbalar asosida, shuningdek mamlakatimiz, MDH davlatlari tarixchi, etnograf, pedagog olimlarining ilmiy-tadqiqot ishlarida, monografik asarlarida yoritilganligi o'rganib chiqilib, tahlil qilindi va xulosalar chiqarildi. Hunarmandchilik turlaridan eng avval dehqonchilik va chorvachilik paydo bo'lgan. Hunarmandchilik rivojlanishi bilan hunarmandlar mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarga olib chiqib, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqara boshladilar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi "hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi va shu bilan bir qatorda hozirgi kungacha hunarmandchilik rivojlanib, bu hunarmandchilik sohasini qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

**Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5242-son farmoni. www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida qonuni Toshkent sh. 2017-yil 7-fevral, PF-4947-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 noyabrdagi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4539-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi. 187 - son qarori.
5. O'zbek Ensiklopediyasi birinchi 1-jild 1983-yil. Ruscha-o'zbekcha lug'at.
6. Muhamadiyeva N.Q. "Texnologiya ta'limida milliy hunarmandchilikning variativ komponentlarini integrativ takomillashtirish". Monografiya./-Termiz. "TerDU nashr-matbaa markazi" nashriyoti, 2022 y. 101 b.
7. Muhamadiyeva N.Q. "Texnologiya ta'limida milliy hunarmandchilikning variativ komponentlarini integrativ takomillashtirish". Monografiya./-Termiz. "TerDU nashr-matbaa markazi" nashriyoti, 2022 y. 101 b.
8. Muhamadiyeva N.Q. Boysun milliy hunarmandchiligining o'ziga xos xususiyatlari. Ilmiy maqola. "Boysun bahori" Xalqaro folklor festivaliga bag'ishlangan Xalqaro ilmiy-metodik konfirensiya. Termiz 7-8 may 2022 yil.
9. Muhamadiyeva N.Q. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologik ta'limni o'qitishning-ilmiy asoslari. Ilmiy maqola "Образование и наука в 21 веке" Международный научно-образовательный журнал. Выпуск №15 (том 2) (июн, 2021 йил.)

РЕЗЮМЕ

Maqolada milliy hunarmandchilikni rivojlantirish mexanizmlari haqida ma'lumotlar va amaliy natijalar batafsil yoritilgan. Hunarmandlik xalq madaniy merosining ajralmas qismi bo'lib, uning an'analari, ijodkorligi va o'ziga xosligini aks ettiradi. Ushbu maqolada milliy hunarmandchilikni rivojlantirishga hissa qo'shadigan mexanizmlar o'rganilib, hunarmandchilik sohasini shakllantirishda an'analar, innovatsiyalar va iqtisodiy omillar qanday hal qiluvchi rol o'ynashiga e'tibor qaratiladi. Turli mamlakatlardagi misollarni tahlil qilib, ushbu maqola milliy hunarmandchilikni rivojlantirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ta'lim, marketing va madaniy tashabbuslarning muhim hisoblanadi.

РЕЗЮМЕ

В статье подробно изложены сведения и практические результаты о механизмах развития национального ремесла. Мастерство является неотъемлемой частью культурного наследия нации, отражая ее традиции, творчество и самобытность. В этой статье исследуются механизмы, которые способствуют развитию национальных ремесел, уделяя особое внимание тому, как традиции, инновации и экономические факторы играют решающую роль в формировании ремесленного сектора. Анализируя тематические исследования из разных стран, в этой статье подчеркивается важность государственной поддержки, образовательных, маркетинговых и культурных инициатив в стимулировании роста национальных ремесел.

SUMMARY

The article details information and practical results about the mechanisms of national craft development. Craftsmanship is an integral part of a nation's cultural heritage, reflecting its traditions, creativity, and identity. This article explores the mechanisms that contribute to the development of national crafts, focusing on how tradition, innovation, and economic factors play crucial roles in shaping the craft sector. By analyzing case studies from different countries, this article highlights the importance of government support, education, marketing, and cultural initiatives in fostering the growth of national crafts.